

O'QUVCHILARGA DOIRA IJROCHILIK SAN'ATINI O'RGATISH METODIKASI**Shokirov Xabibullox Abdusattorovich***Uspenskiy nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarga doira ijrochilik san'atini o'rgatish metodikasi haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ansambl, orkestr, doira, cholg'u.*

O'quvchining asosiy rahbari hisoblangan mutaxassis o'qituvchi uni faqat professionalgina emas, balki jamiyatning badiiy didini, ilg'or musiqa san'atini ommalashtira oladigan faol madaniyat arbobi ham tayyorlaydi. Uning asosiy maqsadi — o'z shogirdida doira cholg'u ijrochiligi, yakkaxon ijrochilik, ansambl, orkestr cholg'ulari, jahon va o'zbek musiqa merosi haqidagi tasavvurlarga ega bolishini hosil qilishi lozim. O'quvchining iqtidorini rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishi, uning o'ziga xos jihatlarini tola namoyon etishi, kompozitorlar uslubida ixtisoslashuv cholg'usi ijrochiligiga oid barcha boyliklardan foydalangan holda sozandaga saboq berish, jahon klassik va zamonaviy kompozitorlarning yakka cholg'u ijrochiligiga, orkestr va ansambl ijrochiligi repertuarini o'rganish, mashhur musiqachi-ijrochilarning magnit-disk yozuvlarini eshitib olganish, milliy ijrochilik uslubining qollay bilish kabi bilim va ko'nikmalarini namoyish etishi zarur. Qolaversa, musiqa sohasidagi o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, opera teatri va studiyalar, turli ijodiy jamoalarda, musiqiy madaniyat muassasalarida ishlash ko'nikmalarini olishlari zarur. Doira o'z nota tizimi, yoliga ega, uni puxta egallash tavsiya etiladi. Doira ijrochiligida uch ijro vositasi mavjud: rang-barang tembrlar, usul va xilma-xil dinamik shakllar. Bularning barchasi doira ijrochilik san'atida o'zaro chambarchas boglangan. Doira zarb va usullari sozandaning ikkala qol barmoqlarining bir xil harakatlari ta'sirida hosil boladigan kuchli va kuchsiz zarb sadolari tufayli vujudga keladi. Shuning uchun ham, doira ijrochilik san'atining boy va xilma-xil ijrochilik imkoniyatlarini bir chiziqli nota yozuvi uslubi toliq ifoda eta olmaydi. Chunki, bir chiziqli uslubda doira zarblarini, asosiy tovush manbai (bak, bum) zarblarini kolsatishi mumkin, xolos. Doira cholg'usida ijrochilik ta'limini o'zlashtirishda ijrochi quyidagilarni bilishi lozim: a) yuksak darajada ritmni his eta bilishi; b) doira va boshqa zarbli musiqiy cholg'ular (ksilofon, doira, nog'ora)da chalishni bilishi; d) ksilofon (ikki qatorlijda gammalar, arpedjio, ikkitali notalar, tremolo va hokazolarni ijro etishni uddalashi; e) texnik plandagi ikkita musiqiy asarni ijro etishi; f) doira, fortepiano uchun yozilgan bitta musiqiy asarni ijro etishi, shuningdek, doira va nog'orada yakkaxon tarzda ijro etiladigan musiqiy asarni namoyish qilishi. Ijrochilikda musiqiy tempni, tezlik barqarorligini, metrik odcham aniqligini saqlay olish, shuningdek, ritmik figuralarning puxtaligini namoyish qila olish. O'quvchining yuqorida aytib o'tilgan asosiy talablarni qay darajada to'liq va to'g'ri

bajarayotganini nazorat qilish uchun mashg'ulotlarni olib borayotgan o'qituvchi nazoratni turli xil ritmik mashqlar yordamida ovoz chiqarib sanash uslubidan foydalanib amalga oshiradi. Ta'kidlamoqchimizki, doira va zarbli musiqiy cholg'ulardan foydalanilganida to'g'ri va aniq zarb berishni puxta o'zlashtirib olish professionallikning asosiy garovi sanaladi. Ijrochilik mahorati haqida so'z ketganida shuni e'tirof etmoqchimizki, doirani chalish vaqtida ijrochi yoki ohirib olishi yoki tik turishi lozim. Tik turib ijro etish vaqtida qaddini rostlash, bel bukilmaligi, yelkalar bo'sh qo'yilishi, bosh tik tutilishi kerak. Qo'l mushaklari ham bo'sh tutilishi, tirsaklarni gavdaga yopishtirmasdan masofada tutish darkor. Doirani ikki qo'l bilan ushlash zarur, bunda instrumentni ushlab turgan qo'llar xiyol chap tomonga suriladi. Shunda ijrochi old tomonidagi manzarani ko'rish va kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Cholg'u sifatida olib qaralsa, doira o'ziga xos quyidagi uchta xususiyatga ega: 1) Jarangdor ovoz; 2) Ritmik xilma-xillik; 3) Ovoz dinamikasining turlicha taralishi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha xususiyatlar musiqiy ijrochilik jarayonida uyg'un va yorqin ifodalanadi. Doirani chalayotgan ijrochilar bir vaqtning o'zida har ikki qo'lini va barmoqlarini ishga solishadi. Doira cholg'usiga xos bo'lgan barcha dinamik ovozlar aynan qo'l va barmoq zarblari yordamida keltirib chiqariladi. E'tirof etmoqchimizki, aksariyat doirachilar har ikki qo'l hamda barmoqlardan bir xilda unumli foydalana olishmaydi, chunki ular cholg'u uslublarini mukammal o'zlashtirib olishmagan bo'lishadi. Cholg'u uslublarini mukammal o'zlashtirib olish uchun amaliy mashg'ulotlar (shu jumladan, turli xil etyudlar ijrosini o'zlashtirish)ga jiddiy e'tibor berilishi, har ikki qo'l va barmoqlar yordamida zarb berishning texnikasini o'rganish uchun ko'p vaqt ajratilishi lozim. Doira cholg'usi uchun zarur bo'ladigan dinamik harakatlarni, qo'l yordamida bajariladigan zarb ko'nikmalarini shakllantirishga va takomillashtirishga moljallangan turli xil mashqlar va etyudlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarov Il. Musiqa lug'ati T., San'at 1990 yil.
2. Vizgo T. O'rta Osiyo musiqa asboblari. Moskva., 1980 yil.
3. Karomatov F. O'zbek chlg'uchilik musiqasi. Moskva., Muzika 1980yil.
4. Odilov A. O'zbek xalq cholg'u asboblari ijrochilik tarixi. Toshkent., O'qituvchi 1995 yil.